

## O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZIM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VA UNING MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIRI

*Ibrohimova Dilsevar Abdumalik qizi*

*Farg'ona davlat universiteti Iqtisodiyot mutaxassisligi*

*1- kurs talabasi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada turizm sohasining muhim taqmoqlaridan biri hisoblanmish, ichki turizmning iqtisodiyotga tutgan o'ri va ahamiyati haqida so'z yuritilgan bo'lib uning rivoji uchun takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Ichki turizm, xalqaro turizm, turist, iqtisodiyot, turoperator, tur, tarixiy obidalar, turistik shahar.

### DEVELOPMENT OF DOMESTIC TOURISM ACTIVITY IN UZBEKISTAN AND ITS EFFECT ON THE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY'S ECONOMY

#### ABSTRACT

This article discusses the role and importance of domestic tourism in the economy, which is one of the most important pillars of the tourism industry, and offers suggestions for its development.

**Key words:** Domestic tourism, international tourism, tourist, economy, tour operator, tour, historical monuments, tourist city.

### KIRISH

Kopgina mamlakatlarda turizm davlat iqtisodiyotining asosini tashkil etadi. Chunki turli mamlakatlarga sayohat qilishni istamaydigan inson bolmasa kerak, nazarimizda. Bugungi kunda jahon turizm bozori qariyb 9 trillion dollarni tashkil etmoqda. Dunyoda ish bilan band aholining har o'ninchisi ushbu sohada faoliyat yuritmoqda.

Bundan korinadiki, iqtisodiyotni rivojlantirishda turizmning orni muhim. Masalan, Ispaniyada turizm YAIMning 11%ini tashkil etadi. Taxlillarga kora turistlar havo transportida uchish vaqti 5 soatgacha bolgan hududlarga eng ko'p sayohat qiladi. Mamlaktimiz atrofida bunday masofada 60 ga yaqin davlat, 3 milliard aholi bor. Yiliga ularning qariyb 360 millioni sayohat qiladi.

Shubhasiz, bu holat ulkan turizm bozorini vujudga keltiradi. Mana shu turizm bozorida oz ornini topish uchun mamlakatimizda turistik baza yetarli, nazarimizda. Turizmning yangi imkoniyatlarini ochish, sohani iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biriga aylantirish, turistik salohiyatni rivojlantirish 2017-yilda yangi bosqichga kotarildi desak mubolaga qilmagan bo'lamiz.

Bu borada muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hukumat rahbari bolganlaridan keyin tub o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi va turizm sohasini iqtisodiyotning strategik tarmogiga aylantirish ustuvor vazifa deb belgilandi. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish haqida soz borar ekan, avvalo ichki turizmni rivojlantirishga e'tibor qaratishimiz kerak.

Masalan, xalqaro turizm rivojlangan davlatlar onligiga kirgan Buyuk Britaniyada ichki turizm yonalishidagi sayyohlar soni xalqaro turistlar sonidan yuqori. Sir emas, bugungi kunda turizm sohasi biroz susaygan. Bu nafaqat mamlakatimizga balki, butun dunyoga xavf solib turgan pandemiya bilan bog'liq. Bugungi kunda butun dunyoda xalqaro turistlarni qabul qilish cheklangan shunday sharoitda turizmni rivojlantirish har qachongidan muhim va ahamiyatlidir.

Bu borada 2021-yil 9-fevralda O'zbekiston respublikasida "Ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 6165-sonli Prezident farmoni imzolandi. Mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish haqida soz borar ekan avvalo, ziyorat turizmi ko'z oldimizga keladi. Bu albatta, mentalitet bilan bogliq holat. Sababi bizda har qanday yosh doirasidagi sayyohlarda muqaddas tarixiy qadamjolariga qiziqish ustun. Sababi bunday joylarga tashrif chogida sayyohlar nafaqat tarixiy obyektlar gozalligidan bahramand bo'ladilar, balki ruhiy ozuqa olib, ruhiyatlarida yengillik sezadilar.

Ichki turizmning ushbu tarmogini rivojlantirishning imkoniyatlari juda keng. Mamlakatimizda 7 mingdan ziyod tarixiy va madaniy yodgorliklar mavjud. Xususan, birgina Xiva shahrining ozida 60 dan ziyod avliyolarning muqaddas qadamjolari mavjud. Afsuski ichki turizmni rivojlantirishga bir qancha tosiqlar ham mavjud. Ichki turizmni rivojlantirish uchun tur marshrutlarning yolg'a qoyilmaganligi asosiy sabab bolsa, ikkinchi sabab aholida ziyorat manzillari haqida yetarli malumotlarning yoqligidir. Viloyatlar miqyosida emas, hattoki tumanlar miqyosida ham ziyorat maskanlari haqida qoshni tumandagilarning bexabarligi achinarli holat albatta.

Mamlakatimizda geografik tuzilishi jihatidan bir biridan farq qiladigan hududlar mavjud, bu albatta sayyohlarning tanlash imkoniyatini oshiradi. Shu sababli mamlakatimizda turizmni rivojlantirish haqida soz borganida, faqatgina ziyorat turizmi yoki tarixiy obidalar bilan cheklanmasdan, ekologik turizm tibbiyot turizmiga ham sayyohlarni jalb qilish mumkin. Sababi yurtimizda nafaqat tarixiy inshootlari, balki ekologik ahamiyatga ega bolgan zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan arzon va sifatli tibbiy xizmatlarni taqdim etadigan dam olish maskanlariga ham ega.

Buyuk olim Abu Mansur Moturidiy maqbarasi va uning yaqinida dafn etilgan 8 buyuk ulamo qadamjosini dunyoda 170 milliondan ziyod izdoshi bo'lgan Moturidiya ta'limotining ziyorat markaziga aylantirish mumkinligi ta'kidlanmoqda. O'zbekistonda Moturidiy merosini o'rganishga faqat mustaqillikdan keyingina kirishildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan 2000-

yilda Moturidiy tavalludining 1130 yilligi O'zbekistonda keng nishonlangan edi. O'zbekiston birinchi prezident I. A. Karimov tashabbusi bilan Samarqandda alloma xotirasiga yodgorlik majmui bunyod etilgan. Toshkent va Samarqandda Moturidiy ta'limoti va uning islom olamida tutgan mavqeiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar o'tkazildi. Moturidiy hayotining turli qirralarini yorituvchi maqolalar, risolalar va tadqiqotlar chop etildi. Moturidiy merosini o'rgangan xorijlik olimlar bilan samarali hamkorlik aloqalari o'rnatildi. 2001-yilda Göttingen (Germaniya) universitetining professori Rudolf Ulrich qalamiga mansub "Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti" kitobi o'zbek tilida nashr etildi. 2002-yilda mazkur kitobning keng ommaga, jumladan, oliy o'quv yurtlarining talabalari va o'rta maktablarning yuqori sinf o'quvchilariga mo'ljallangan nashri amalga oshirildi. Endilikda xalqimiz Moturidiy merosi bilan o'z ona tilida tanishish imkoniga ega bo'ldi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlangani sayin aholi daromadlari va farovonligi ortib boradi. Bu o'z navbatida ichki turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda eng avvalo aholini mana shunday turistik manzillar bilan tanishtirish kerak.

Bu borada quyidagi takliflarimiz o'rinli nazarimizda:

Ijtimoiy tarmoqlarda mamlakatimizning turistik salohiyatga ega obyektlari haqida ma'lumotlar bazasini kengaytirish.

Televideniya va radio orqali "Ozbekiston boylab sayohat" yonalishida korsatuv va eshittirishlar salmog'ini oshirish.

Hududlar ortasidagi aloqalarni mustahkamlash, bu borada mahallalar faolligini oshirib, sayyohlar almashinuvini yolga qo'yish. Xususan, mahallalarda ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlari uchun "sayohat haftalik"larini tashkil etish.

Katta yoshli aholi uchun mahallalar tomonidan Navro'z bayramlarida yoki Hayit bayramlarida "ziyosat kunlari"ni uyushtirish.

Universitetlarda faol talabalar uchun, xususan, turizm yonalishida tahsil oladigan talabalar uchun "Ozbekiston boylab sayohat" haftaliklari tashkil etilsa nur ustiga alo nur bolar edi. Sababi bu sayohat nafaqat yangi joylar haqida yangi taassurotlar balki, kelajakda ushbu sohada xizmat korsatadigan talabalar uchunulkan tajriba maktabi vazifasini o'tardi.

Umuman turizmni rivojlantirish haqida soz borganda, xalqaro turistlarni qanday jalb qilishga koproq etibor beriladi. Fikrimizcha bu borada xalqaro turistlarni jalb qilishdan kora, ichki turizmdagi sayyohlarning chetga chiqishini oldini olish va ularni koproq ichki turizmga jalb qilish orinli. Bu borada marketingni yolga qoyish muhim.

#### REFERENCES

1. TURIZM ASOSLARI M.A.Mirzayev, M.T.Aliyeva T.: 2011
2. [www.zen.yandex.ru](http://www.zen.yandex.ru)
3. LEX.UZ
4. Ziyonet.uz